

## FE'L LEKSEMALARINING DARAJALANISHIGA KO'RA TURLARI

*M.B.Kasimova*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** maqolada muallifning fe'l so'z turkumining sememalari, fe'l semantik maydonining leksik-semantik guruhlari, ushbu sememalarda darajalanish hodisasining namoyon bo'lishi, yasama fe'llarning ta'sirchanlikni kuchli darajada ifodalashi haqidagi ilmiy manbalarga asoslangan qarashlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** semasiologiya, semema, sememalarning uslubiy xoslanishi fe'l so'z turkumi sememalari, fe'l sememalarida darajalanish hodisasining namoyon bo'lishi, obrazli holat fe'llari.

Semasiologiya tilshunoslikning ma'no haqidagi sohasidir. Tilning turli sathlaridagi birliklarning ma'nosini tadqiq etish semasiologiyaning vazifasi hisoblanadi. Lisoniy ma'no, ya'ni til birliklari anglatayotgan ma'no uning o'rganish predmeti sanaladi. Demak, semasiologiya til birliklarining ma'nosini tadqiq qiladi. Tilning hosil qiluvchi sistemasi sifatida ma'no tashish uchun yashaydi. Ushbu ma'nolarning mohiyati, tuzilishi, turlari, ma'noning til sathlari birliklariga biriktirilganlik darajasi, sath birliklari o'rtasidagi ma'no taqsimotiga, shu nuqtayi nazardan tillarning o'xshash va farqli tomonlari, ma'nolarning birikib murakkab mazmun hosil qilishlari kabilarni o'rganish semasiologiyaning asosiy vazifalaridan sanaladi. Tilshunoslikning leksikologiya, grammatika bo'limlarida ham til birliklarining ma'nosi o'rganiladi. Bu bo'limlarda ma'no shakl bilan birga, uning funksiyasi sifatida tadqiq qilinadi. Semasiologiyada esa lisoniy ma'no alohida mohiyat sifatida o'rganiladi<sup>2</sup>.

Hozirgi o'zbek adabiy tili darsliklarida sememaga quyidagicha tavsif berilganligini ko'rish mumkin: "Leksemaning ichki, mazmuniy tomoni *semema* deyiladi. Semema – ongda aks etgan narsa, belgi, miqdor, harakat kabi tushunchaning leksemada mujassamlashgan ko'rinishi. Boshqacha aytganda, semema leksemaning ichki jihati.

Birorta leksemaning sememasi ikkinchi leksemaning sememasiga aynan o'xshash bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, bir xil sememaga ega ikkita leksema yo'q. Bunga ikkita sinonim leksemaning sememasini qiyoslash asosida amin bo'lishimiz mumkin:

*Yuz* – inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining uslubiy betaraf ifodasi.

*Bet* – inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining so'zlashuv uslubiga xos ifodasi.

Ko'rinadiki, birinchi sememadagi "uslubiy betaraf" unsuri ikkinchi sememada, ikkinchi sememadagi "so'zlashuv uslubiga xos" unsuri birinchi sememada yo'q.

<sup>1</sup> fffd.(PhD) – "Yosh chegarachilar"HAL ona tili va adbiyot fani o'qituvchisi

<sup>2</sup> Хакимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008. – Б. 3.



Agar semema aynan bo‘lib qolsa, demak, bu ular tavsifida nuqson mavjud deyishga asos bo‘ladi. Semema mukammal tavsiflanganda, bu tavsifdanoq ushbu tilni eng nozik jihatlarigacha puxta bilgan kishi so‘z qaysi leksema haqida ketayotganligini ravshan anglaydi”<sup>3</sup>.

Yuqoridagi sememaga berilgan tarif asosida fe‘l so‘z turkumiga oid darajalanuvchi qatorlarni tahlil qilib ko‘rsak:

*Koyimoq* – tanbehlovchi gap, so‘z aytmoq, tanbeh bermoq, urishib qo‘ymoq.

*Do‘q urmoq* – kinoya, kesatiq ma‘noli gap, so‘z aytmoq, piching qilmoq.

*Baqirmoq* – Bor ovoz bilan qichqirmoq, shovqin solmoq, tanbeh bermoq<sup>4</sup>.

Ushbu misol tahliliga qaraydigan bo‘lsak, bu yerda ham birinchi semema “uslubiy betaraf” unsuri ikkinchi sememada, ikkinchi sememadagi “so‘zlashuv uslubiga xos” unsuri birinchi sememada yo‘qligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Shuningdek, uchinchi sema “og‘zaki uslubga xos” ekanligi oydinlashadi.

Atoqli tilshunos olim R.Rasulov fe‘l so‘z turkumi sememalari (ma‘nolari) tahliliga bag‘ishlangan o‘zining “O‘zbek tili fe‘llarining ma‘no tuzilishi” nomli monografiyasida o‘zbek tilidagi holat fe‘llarini quyidagicha tasniflaydi. “O‘zbek tilidagi holat fe‘llari ma‘nosini tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish natijasida bu semantik maydonning quyidagi leksik-semantik guruhlardan tashkil topishi aniqlandi:

1. Davomli holat fe‘llari.
2. Harakat natijasi bo‘lgan holat fe‘llari.
3. Ijro holati fe‘llari.
4. Harakatning holati fe‘llari.
5. Malaka holati fe‘llari.
6. Obrazli holat fe‘llari.
7. Biologik holat fe‘llari.
8. Fiziologik holat fe‘llari.
9. Psixik holat fe‘llari.

Bu leksik – semantik guruhlarda “holat” mushtarak sema, “davomli”, “harakat natijasi”, “ijro”, “harakat”, “malaka”, “obrazli”, “biologik”, “fiziologik” va “psixik” kabi ma‘no bo‘laklari esa birlashtiruvchi sema bo‘lishi<sup>5</sup> dalillanganligini ko‘rish mumkin. Ushbu holat fe‘llarining har-birida qaysidir ma‘noda darajalanish namoyon bo‘ladi.

Fe‘l sememalarida darajalanish hodisasining namoyon bo‘lishi masalasida tilshunos olim R.Rasulov quyidagi misollarni bayon qiladi: "O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati"da harorat belgisiga ega: *isimoq*, *qizimoq* fe‘llari-sinonim birliklar sifatida bir xil izohlanadi: Ko‘p issiqlikka ega bo‘lmoq, harorati ko‘tarilmoq. Har qanday sinonim so‘zlar bir-biridan qo‘shimcha ma‘no nozikligi (konnotatsiyasi)ga ko‘ra farqlanganidek, *isimoq* va *qizimoq* ham o‘zaro ma‘no qirrasiga ko‘ra farqlanadi:

*Qizimoq* – harorati juda ko‘tarilgan, qizish holatiga o‘tmoq: *Kunduz qizib, tunlar kuydirib yomon* (F. Yo‘ldosh). *Kundan- kunga havo qizidi* (Oybek).

*Isimoq* – harorati ko‘tarilgan, isish holatiga o‘tmoq: *Bugun ertalabdan kun ham isidi* (H. G‘ulom). *Bahor kelishi bilan kun isiydi* (Sh. Shomaqsudov, S. Dolimov). *Qizimoq* ma‘nosida belgi darajasi kuchli bo‘lib, u, asosan, og‘zaki nutqqa xos<sup>6</sup>. Darajalanish qatori kamida 3 ta so‘zdan iborat bo‘lishi kerak. Shunda darajalanish yaqqol namoyon bo‘ladi.

<sup>3</sup> Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T.,:Fan va texnologiya, 2009. – B.141-142.

<sup>4</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 224.

<sup>5</sup> Расулов Р.Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2008. – Б.6.

<sup>6</sup> Расулов Р.Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2008. – Б.26.



Fe'l sememalarida darajalanish haqida fikrini davom ettirar ekan, *mayinlashmoq* fe'lida ham darajalanish borligini qayd qilib o'tadi. "*Mayinlashmoq* – yumshoq, yoqimli, muloyim holatga o'tmoq: *Ertalabki sovuq shabada peshinda mayinlashib, bahordan darak beradi* (Toshkent oqshomi). *Mayinlashmoq* ma'nosida belgi darajasi ortiqroq. Bu so'z qo'shimcha "yoqimli" belgisi (semasi)ga ega bo'lib, ijobiy bo'yoq ifodalaydi. *Mayinlashmoq, yumshamoq* so'zlari, asosan, adabiy tilga, she'riyatga, *ilimoq*, asosan jonli nutqqa xos.<sup>7</sup>

*Qovjiramoq* → *qurimoq* → *qaqramoq* darajalanuvchi fe'l qatori harakat natijasi bo'lgan holat fe'llarining ma'no tuzilishiga ko'ra izohlanishini "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi berilishi hamda atoqli tilshunos olim R.Rasulov tomonidan izohlanishini ko'rib chiqsak:

**QOVJIRAMOQ 1.** Suvsirab yoki issiqning zo'ridan, garmseldan so'lmoq, qurib bujmaymoq, quruqshamoq. *Qovjiragan barg. Qovjiragan o't. shsh*

*Adolat chanqab, qovjirab turgan har bir g'o'zaga qarab achinar va tungi suvni shimirib tirilayotgan har bir g'o'zani ko'rib quvonardi.* I. Rahim, Chin muhabbat.

**2.** Suvsizlik va issiq ta'sirida qaqramoq, porsillamoq, yorilmoq. *Qovjiragan yerlar. Haroratdan lablari qovjiradi. shsh*

*Gulxanchilarning dala shamoli bilan qovjiragan yuzlariga tiniq qizillik yugurib olovlandi.* Oybek. Tanlangan asarlar.

*Keyin boshini shart burib, suvsizlikdan qovjirab yotgan tarnovga qarab yurdi.*

D. Nuriy, Osmon ustuni.

**3.** *ko'chma.* Dard, alam va sh.k. dan kuyib ado bo'lmoq, o'rtanmoq. *Shundan buyon qiz ayriliq dardida qovjiraydi.* Oybek, O. v. shabadalar<sup>8</sup>.

**QURIMOQ 1.** Ho'l, namlikdan xoli bo'lmoq, quruq holga kelmoq (*q. quruq 1*). *Ho'l bo'lgan kiyimlari o'tobda tez quridi. Arralab, yorib, taxlab qo'yilgan o'tinlar yaxshi quridi. tsh*

*G'ulomjonlar.. o'tobda qurib, taxta oralari katta ochilib qolgan bir tabaqali eshikni taqillatishdi.* M. Ismoiliy, Farg'ona t. o.

*Ipga chizilgan jambillar qurib, qovjirab qolgan edi.* S. Zunnunova, Olov. *Qo'ltig'idan qog'ozga o'ralgan, qurib tolqonlangan nosini olib, til ostiga otdi.* Oybek, Quyosh qoraymas.

**2** Suvi tugamoq (suv obyektlari haqida). *Orol dengizi surib bormoqda.*

*Yaxshi so'zdan moy eriydi, Yomon so'zdan soy quriydi.* Maqol.

*Yozda chayla qurib ketdi.. "Gulnorpari"*<sup>9</sup>.

**QAQRAMOQ** - Nami qochib yoki suvsizlikdan, tashnalikdan qurib qolmoq; quruqshamoq. *Qaqragan cho'l. Tomog'im qaqrab ketyapti. Bemorning lablari qaqradi. mm*

*Kimsasiz cho'l. Quyoshning jazirama issig'idan hamma yoq qaqrab ketgan.* Gazetadan<sup>10</sup>.

"**Qovjiramoq** – suvsizlikdan qurib, bujmaygan, so'ligan holatga o'tmoq: *Tez kunda quyosh devorlar rangini ko'tardi, endigina ko'kara boshlagan giyohlarni qovjiratdi* (O.Muxtorov).

*Adolat ... chanqab, qovjirab turgan har bir g'o'zaga qarab achinar ...* (I. Raxim).

**Qurimoq** – suvsiz (namsiz) holatga o'tmoq: *Daryoda suv quridi* (M. Egamberdiyeva). *U tomda quritilgan mayizlarni pastga tushirib ...* (S Yunusov).

**Qaqramoq** – butunlay suvsiz, suvi (nami) yo'q holatga o'tmoq: *Ariqlar qaqragan, daraxt yaproqlari to'zigan* (M.Ismoiliy). *Agar suv bo'lmasa, ekinlar qaqrab, daraxtlar quriydi* (S.Yunusov).

<sup>7</sup> Rasulov P. Uzbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi. – Toshkent, 2008. – B.26.

<sup>8</sup> Uzbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: UZME, 2006. – B. 334

<sup>9</sup> Uzbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: UZME, 2006. – B. 402

<sup>10</sup> Uzbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: UZME, 2006. – B. 283



*Yer qaqragan* (N.Yoqubov). Qaqramoq ma'nosida belgi darajasi ortiq"<sup>11</sup>ligi R.Rasulov tomonidan qayd qilinadi.

O'zbek tilida obrazli holat fe'llarining ma'no tuzilishi haqida fanimizda quyidagi ilmiy-nazariy qarashlar mavjud. "Tasviriy (obrazli) holat fe'llari obyektiv borliq predmet-hodisalar, ular orasidagi munosabatlar haqida muayyan xabar berishi, ta'sirchanlik darajasining ortiqchiligi bilan ajralib turadi. Bu guruh holat fe'llari yakka, o'zicha olinganda, ulardagi ta'sirchanlik ko'pincha aniq ifodalanadi. Qiyoslang: *do'ppaymoq, qaqqaymoq, gullamoq, shumshaymoq, oltinlanmoq, jilvalanmoq, jilolanmoq*. Bunday fe'llar gapda muayyan so'zlar qurshovida olinganda esa, ta'sirchanlik doimo kuchli darajada ifoda etiladi. Bu tabiiy, chunki obrazli holat fe'llarini o'ragan qurshov birliklari ushbu fe'llar ma'nosini "tiniqlashtirib" qolmasdan, balki undagi ta'sirchanlikni yana ham kuchaytiradi, bo'rttiradi. Umuman, nutq jarayoni predmet – hodisalar, ular nomlarining semantik-sintaktik qonuniyat asosida o'zaro birikib, muayyan nutqiy o'rinni egallab, shu o'rinda qo'llangan so'z ma'nolarining qaysi tarkibiy qismlari – farqlovchi semalari faolligini ta'minlaydi<sup>12</sup>. Professor R.Sayfullayeva hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasida semalarning darajaviy ajratilishiga ko'ra turlari haqida quyidagicha fikr bildirilgan: "Sema darajasiga ko'ra birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differensial) semaga ajratiladi. Birlashtiruvchi sema birdan ortiq leksemadagi o'xshash, bir xil semadir. Farqlovchi sema esa o'xshash, ma'noviy yaqin leksemalardagi farqlanuvchi semalardir. Masalan, *ota, ona, aka, opa, uka, singil* leksemasidagi "qarindosh", "qon-qarindosh", "bevosita" semasi integral sema bo'lsa, "mendan katta" semasi *ota, ona, aka, opa* leksemalarini o'zaro birlashtiruvchi, ammo *uka, singil* leksemalaridan farqlovchi semalardir. "Mendan kichik" semasi *uka* va *singil* leksemasini o'zaro birlashtiruvchi, biroq oldingi leksemadan farqlovchi sema. Ko'rinadiki, bir sema leksemani bir vaqtning o'zida nima bilandir birlashtiruvchi, nima bilandir farqlovchi qarama-qarshi tabiatli mohiyatga ega. Birlashtiruvchi sema sistema hosil qiluvchanlik, sistemaga asos bo'luvchi, farqlovchi sema esa sistemada tug'iluvchi, paydo bo'luvchanlik xossasiga ega"<sup>13</sup>ligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳакимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008.
2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T.:Fan va texnologiya, 2009.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006.
4. Расулов Р.Узбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2008.

<sup>11</sup> Расулов Р.Узбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2008. – Б.20.

<sup>12</sup> Расулов Р.Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2008. – Б. 37.

<sup>13</sup> Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B. 151.

